



IN NEW UZBEKISTAN - IMPROVING THE ROLE OF LOCAL COUNCILS OF PEOPLE'S DEPUTIES IN HEARING THE REPORTS OF TERRITORIAL PROSECUTOR'S OFFICES

Shomurotov Ma'ruf Abdusamat o'g'li¹

¹ Tashkent State Law University in public administration

(Uzbek) first-year master's degree

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4737927>

ARTICLE INFO

Received: 20th April 2021

Accepted: 25th April 2021

Online: 30th April 2021

KEY WORDS

accountability of territorial prosecutor's offices, the place and role of local Councils of People's Deputies, control of local Councils of People's Deputies, local councils of people's deputies vote of no confidence in the prosecutor.

ABSTRACT

In the new Uzbekistan - the basis for increasing the role and place of local Councils of People's Deputies in improving the accountability of regional prosecutor's offices, the legal framework for their activities was discussed.

YANGI O'ZBEKISTONDA – XALQ DEPUTATLARI MAHALLIY KENGASHLARINING HUDUDIY PROKURATURA ORGANLARINI HISOBOTINI ESHITISHDAGI O'RNI VA ROLINI TAKOMILLASHTIRISH

Shomurotov Ma'ruf Abdusamat o'g'li¹

¹ Toshkent Davlat Yuridik Universiteti davlat boshqaruvi huquqi

(o'zbek) yo'nalishi birinchi kurs magistranti

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-aprel 2021

Ma'qullandi: 25-aprel 2021

Chop etildi: 30-aprel 2021

KALIT SO'ZLAR

hududiy prokuratura organlari hisobdorligi, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari o'rni va roli, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari nazorat, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari prokurorga nisbatan ishonchsizlik votumi.

ANNOTATSIYA

Yangi O'zbekistonda – Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari hududiy prokuratura organlari hisobdorligini takomillashtirishdagi o'rni va rolini oshirish asoslari bayon qilingan, faoliyatining huquqiy asoslari muhokama qilingan.



KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasida "xalq – hokimiyatning birdan bir manbai" ekanligi konstitutsiyada belgilab qo'yilgan. Ushbu ta'kid shuni anglatadiki, xalq fikri davlat huquqiy faoliyatning mazmunini, uning asosini tashkil qiladi. Davlat hokimiyatining xalq manfaatlarini ko'zlab, o'z faoliyatini yo'lga qo'yishi konstitutsiyamizning muqaddimasida qat'iy belgilangan, davlat hokimiyati zimmasiga qo'yilgan ustuvor vazifadir. Davlat hokimiyatining faoliyati xalq hokimiyatini amalga oshirishning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. Ushbu faoliyat, avvalambor, konstitutsiya va qonunlar, Prezident farmon, qarorlari va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan tartibda davlatning Konstitutsiyasida belgilangan organlari va mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshiriladi. Ular ham o'z navbatida vaqti-vaqti bilan o'tkaziladigan saylovlar orqali tarkiban shakllanib yoki almashib turadi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, Xalq deputatlari mahalliy kengashlarining o'rni har qachongidan ham oshib bormoqda.

" 2017-yildan boshlab barcha darajadagi hokimlar, prokuratura va ichki ishlar organlari rahbarlarining aholi oldida hisobot berish tizimi joriy etiladi. Bundan tashqari, viloyatlarda prokurorlarning ishiga qarab oylik reytingi tuzib boriladi. Ularning faoliyatiga reyting natijalari asosida baho beriladi" [1].

ASOSIY QISM

Keyingi paytda yurtimizda xalq deputatlari Kengashlarining roli, xalq vakillarining vakolatlari tubdan oshirilmogda. Siyosiy partiyalarning mahalliy hokimiyat idoralarini shakllantirish borasidagi vakolatlari bosqichma-bosqich kengaytirilmogda, deputatlik nazorati esa mustahkamlanmogda. Hududiy ijro

organlarining bajarayotgan vazifalari yuzasidan nazoratni o'rnatuvchi organ sifatida shakllantirish zarurli oshib bormogda ,xususan,hududiy prokuratura organlarining faoliyati davomida amalga oshiradigan ishlab borasida hisobdorligi masalasi muhim ahamiyat kasb etmogda.Umuman olgan prokuratura organlarining hisobdorligiga nazar tashlaydigan bo'lsak,"Prokuratura organlari to'g'risida"gi qonun hujjatida berilgan hisobdorlik masalalari haqida quyidagilarni bayon qila olamiz.

Prokuratura organlari yagona markazlashgan tizimdan iboratligi munsabati bilan quyi turuvchi prokurorlar yuqori turuvchi prokurorlarga va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunishi hamda hisobdordligi asosida faoliyat ko'rsatishi prinsipini amal qilishi prokuratura organlaridagi hisobdorligi masalalarini yuritilish mezonini aynan qanday bo'lishi kerakligi belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi qonuni va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlari, qonunosti hujjatlarida belgilangan vazifa va vakolatlardan kelib chiqqan holda quyi turuvchi prokurorlarning yuqori turuvchi prokurorlarga va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunishi hamda hisobdorligi asosida faoliyat ko'rsatishi mustahkamlangan.[2]

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura tugrisida»gi qonunining 5-moddasiga muvofiq, Viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar xalq deputatlari tegishli Kengashlariga, zarurat bo'lgan hollarda esa fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga qonuniylikning hamda jinoyatchilikka karshi kurashning holati



to'g'risida har yili axborot berishlari belgilangan.

“Mahalliy davlat hohimiyati tog'risida”gi qonun hujjatining 24-moddasida ko'rsatilgan – Xalq deputatlari Kengashining vakolatlari bu sohaga qo'yilgan talablarning ham muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi.

Vakolatlari jumlasida :

➤ hokimning taqdimiga binoan, hududni rivojlantirishning istiqbolga mo'ljallangan dasturlarini, tuman, shaharning bosh rejasi va uni qurish qoidalarini tasdiqlash

➤ tegishli budjetlardan moliyalashtiriladigan hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarning budjet mablag'laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar to'g'risidagi hisobotlarini eshitish

➤ mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilash

➤ ijroiya hokimiyati bo'limlari, boshqarmalari, boshqa tarkibiy bo'linmalari rahbarlarining hisobotlarini, shu jumladan qonunlarga rioya etilishi, tegishli xalq deputatlari Kengashlari qarorlarining va doimiy komissiyalar tavsiyalarining bajarilishi yuzasidan hisobotlarini eshitadi

➤ **tegishli prokurorlarning hisobotlarini eshitish**

Yuqoridagi vakolatlardan kelib chiqib, shu ta'kidlash lozimki, Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari deputatlarining vakolati anchagina yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi “Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, mamlakatni modernizatsiya qilish, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlashda prokuratura organlarining rolini kuchaytirish to'g'risida”gi PF-5019-son Farmoni bilan O'zbekiston

Respublikasi Bosh prokuraturasi tarkibida Tadbirkorlik va investitsiyalarni huquqiy himoya qilish boshqarmasi tashkil etilgan. Biroq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-martdagi “Tadbirkorlik faoliyatini himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish va prokuratura organlari faoliyatini optimallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5690-son Farmoni, shuningdek, 2017-yil 8-avgustda qabul qilingan “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4102 son qarori muvofiq, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining yashash sharoitlarini tubdan yaxshilash, turmush darajasida sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishish maqsadda hududlarni sektorlarga bo'lib ishni tashkil etish tizimining joriy etilganligi xalq bilan manzilli muloqotning yo'lga qo'yilishiga imkon yaratdi. Sektorlar, boshqarma va joylarda tegishli organlar bilan hamkorlikda hududiy prokurorlar e'tibori aholini (jumladan, xotin-qizlar) tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, o'zini-o'zi band qilish, kreditlar ajaratish, qo'shimcha ish o'rinlari bilan ishsizlarni ta'minlash uchun zarur shart-sharoit va imkoniyat yaratish, javobgarlik belgilash tizimini yengillashtirishga qaratilishi lozim bo'lgan ishlarni amalga oshirmoqda. Bunda, albatta, prokurorlar ish faoliyati shaffofligini yanada oshirish, ushbu sohada prokurorlarning qonunlar ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirmoqda. Shuning uchun ham hududiy prokuratura organlarining faoliyati davomida amalga oshiradigan ishlab borasida hisobdorligi masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Davlat va jamiyat quruluş tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida hududiy prokuratura va xalq



deputatlari mahalliy Kengashining ishtirokining kengashtirish ikkala tashkilotning o'zaro bo'g'liqligini yanada kuchaytirish choralari takomillashtirilmoqda. Aytish joizki, joylardagi mahalliy davlat boshqaruv organlari borasida amalga oshiriladigan islohotlar o'z ichiga nafaqat markazdan ayrim boshqaruv funksiyalarini joylardagi organlarga o'tkazish va ularni boshqaruv sohasidagi huquq va majburiyatlarini kengaytirishni nazarda turib qolmay, balkim ayni paytda "Mahalliy davlat hokimiyati tizimini tashkil etishda hokimiyatlar bo'linishi prinsipini amaliy ro'yobga chiqarishni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida vakillik va qonunlarni ijrosini bir xilda amalga oshirishni taminlovchi prokuratura organlarining vakolatlari va ularni tashkil etish mexanizmlarida muayyan islohotlarni talab etadi.

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari Yangi O'zbekistonda o'rni muhimligi oshib bormoqda. Ularni jamiyatimizning muhim tashkilotiga aylantirishimiz kerakligi yuqoridagi ma'lumotlarda keltirib o'tildi. Chunki, deputatlar o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi, "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari deputatlari maqomi to'g'risida"gi qonun hujjatlaridagi vakolatlari qolib ketmoqda, nazarimizda.

Biz jamiyatimizda qonunlar ustuvorligini, norma ijodkorligi, xalq bilan ishlash tizimining eng muhim bo'g'inini mahalliy deputatlarni huquq va majburiyatlarini to'laqonli amalga oshirishlariga imkoniyat yaratmog'imiz lozim. Xususan, Davlat boshqaruv organlari, tashkilot va mansabdor shaxslarni hisobotini eshitish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari, normativ huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish yuzasidan

takliflarni kiritish faoliyatini takomillashtirish zarur.

Muxtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "O'zbekistonda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, avvalambor, xalq bilan muloqot prinsipiga g'oyat uyg'un va hamohang bo'lib, bizning ish faoliyatimiz samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi, deb o'ylayman"[4]. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari hududlarni o'rganish va ularni muammolarini aniqlash maqsadida har bir organ huzurida sektor tashkil etilgan, shu jumladan prokuraturada ham faoliyat yuritmoqda. Ilohotlar davomida ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar, ishsiz yoshlar, tadbirlar bilan uchrashuvlar, kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash, "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari" tuzilayotganligi va ularni hal etish masalasida har bir deputat o'z hududida bir qator ishlar olib borilayotgani alohida ahamiyatga ega.

Bugungi kunda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunda belgilangan deputat nazoratini xalq deputatlari mahalliy Kengash nazorati shaklida batafsilroq yoritish belgilash lozim. 1993-yil qabul qilingan "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunni yangi tahrirda qabul qilish va unda deputatlik nazorati shakllari, ularni amalga oshirish mexanizmlari, nazorat obyekt va subyekti qonunda aniq belgilanishi lozim.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ijobiy tajribasini milliy qonunchiligimizga implikasiya qilish maqsadida milliy qonunchilikka Kengash hisobot taqdim etuvchi mansabdor shaxslarga nisbatan kengash tomonidan ishonchsizlik votumi berish mexanizmini yaratish lozim. Qoniqarsiz faoliyat yuritadigan mansabdor shaxslarga kengash tomonidan berilgan e'tirozlarni tuzatish uchun olti oylik muhlat berish maqsadga muvofiq. Shuningdek, hududiy prokuratura (viloyat, tuman, shahar



prokuratura organlari) har oyda kamida bir marta hudud miqyosidagi ishlarning bajarilish davomida olib borilgan ishlar bo'yicha prokuror hisobotini eshitish mexanizmini joriy etish kerak.

Xorijiy davlatlarning (AQSH, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya, Qozog'iston) ushbu yo'nalishda prokuror nazoratini ta'minlash borasidagi ilg'or tajriba va o'ziga xos jihatlarni milliy prokuraturaga tatbiq etish lozim.[5]

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari tomonidan nazorat qilinadigan organlar jumlasini aniq belgilab berilishi bu sohadagi sonsolorliklarni ayniqsa, korrupsion vaziyatlarni kamaytiradi.

Yangi O'zbekistonda xalq bilan muuloqot qiladigan asl deputatlarni shakllantirishimiz xalq bilan mahalliy Kengash deputatlari o'rtasida lokativ yaratiladi. Bu esa demokratik jamiyatning ustunidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi .Toshkent. Adolat.2020
2. Shavkat Mirziyoyev Miramonovich 2017-yil 7- yanvarda Prokuratura organlari kuni tabriknomasi
3. O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi qonun 14-modda (yangi tahrir).29.01.2001.
4. 1993-yil 2-sentyabr qabul qilingan Mahalliy davlat hohimiyati to'g'risida"gi qonun
5. Ш. Мирзиёев. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш - юрт тараққиёти ва халқ
6. фаровонлигининг гарови // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга
7. кўтарамиз. - Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, - 2017. - Б.209.
8. Комилов Авазбек Бокижонович тадбиркорларни ҳуқуқий ҳимоя қилишга қаратилган қонунлар ижроси устидан прокурор нazorатининг ташкилий-ҳуқуқий асосларини бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати .Тошкент – 2020. 15-бет